

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**5-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

H.V.Ivонина, Ф.Ч.Бойко

Сравнительный анализ моделей организационного туризма в Европе, СНГ и Азии: институциональные уроки для Узбекистана 5

Е.В.Голышева, Ш.Г.Хошимов

«Зигзагообразное» планирование туристских маршрутов как инструмент пространственного развития и устойчивости туризма (на примере Ферганской области) 13

FALSAFA

S.A.Muradov

Hind o'lkasida tasavvuf ta'limotining rivojlanish tendensiyasi 22

L.S.Yuldasheva

Abu Ali ibn Sinoning "Urjuza" she'riy dostonining falsafiy tahlili 26

M.T.Xidirov

Postnoklassik ilmiy tafakkur shakllanishida bilim va faoliyat dialektikasining o'rni 30

D.I.Saydullayeva

Axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi 35

F.A.Yuldashev

Raqamli jamiyat sharoitida shaxs ehtiyoj-manfaatlari va ekzistensial jarayonlar: ijtimoiy-falsafiy tahlil 38

R.Orziboyev

Yoshlar g'oyaviy birdamlik fazilatlarini yuksaltirish integratsiyasida musiqiy merosning o'rni 43

C.Бусала

Изучение искусственного интеллекта через призму философского пространства и времени 47

Y.A.Xudoyqulov

Zamonaviy jamiyatda harbiy fanni yuksaltirishga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar metodologiyasi 51

R.S.Raupova, N.Rajabova

Imom ash-Shotibiyning qiroat ilmidagi xizmatlari va uning ilmiy merosi 55

E.I.Tursunaliyeva

Ijtimoiy davlat fenomeni: nazariy yondashuvlar va xalqaro tajriba 58

G.A.Raximova

Milliy madaniyatni rivojlantirish va saqlab qolishning ijtimoiy omillari 62

M.Z.Jumayeva

Globalashuv sharoitida yangi O'zbekiston: ulkan maqsadlar va zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim xususiyatlari 67

A.A.Qambarov

Is'hoqxon to'ra ibrat ilmiy merosining falsafiy tahlili 72

B.S.Ganiyev, I.B.Xolmatov

Jamiyatimiz yangi taraqqiyot bosqichida sportni – ijtimoiy fenomen sifatida qaror topishining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari 77

L.E.Tursunova

Tilab Mahmudovning milliy estetik merosga qo'shgan hissasi 83

A.A.Mo'ydinov

Ma'naviy amaliyot kategoriyasining ijtimoiy-falsafiy talqini 87

M.K.Soipova

Fazl ibn Ahmad qarashlarida axloqiy masalalarning falsafiy tahlili 93

M.K.Soipova

Yangi O'zbekistonda yoshlarni komillikka erishishida Fazl ibn Ahmad merosining o'rni 96

G.A.Qamariddinova

"Rashahotu aynil-hayot" asarida insonparvarlik va ma'rifatli jamiyat konsepsiyasi 100



UO'K: 008:111.852(575.1)

TILAB MAHMUDOVNING MILLIY ESTETIK MEROSGA QO'SHGAN HISSASI

ВКЛАД ТИЛАБА МАХМУДОВА В РАЗВИТИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ЭСТЕТИЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ

TILAB MAHMUDOV'S CONTRIBUTION TO THE DEVELOPMENT OF NATIONAL AESTHETIC HERITAGE

Tursunova Laylo Ergashevna



Farg'ona davlat universiteti, Musiqiy ta'lim va madaniyat kafedrası katta o'qituvchisi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada Tilab Mahmudovning o'zbek milliy estetik tafakkuri rivojiga qo'shgan hisssasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Muallifning san'at, go'zallik, axloq va ma'naviyat haqidagi qarashlari o'zbek falsafiy tafakkurining uzviy davomchisi sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada Mahmudovning milliy estetik merosni asrash, uni zamonaviy madaniyat bilan uyg'unlashtirish yo'lidagi ilmiy izlanishlari tahlil etilib, uning asarlari orqali yoshlar estetik ongini shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi.

Аннотация

В данной статье рассматривается научно-теоретический вклад Тилаба Махмудова в развитие узбекского национального эстетического мышления. Анализируются его взгляды на искусство, красоту, нравственность и духовность как закономерное продолжение философской традиции Узбекистана. Особое внимание уделено роли Махмудова в сохранении национального эстетического наследия и его гармоничном сочетании с современной культурой. Также раскрывается значение его трудов в формировании эстетического сознания молодежи.

Abstract

This article analyzes the scientific and theoretical contribution of Tilab Mahmudov to the development of Uzbek national aesthetic thought. His views on art, beauty, morality, and spirituality are examined as a natural continuation of the philosophical tradition of Uzbekistan. The paper highlights Mahmudov's efforts to preserve national aesthetic heritage and integrate it with modern culture. Furthermore, it emphasizes the significance of his works in shaping the aesthetic consciousness of youth.

Kalit so'zlar: Tilab Mahmudov, estetik meros, milliy qadriyatlar, ma'naviyat, go'zallik falsafasi, san'at va axloq, estetik tafakkur, madaniy uyg'unlik, falsafiy qarashlar, yoshlar estetik ongi.

Ключевые слова: эстетическое наследие, Тилаба Махмудова национальные ценности, духовность, философия красоты, искусство и нравственность, эстетическое мышление, культурная гармония, философские взгляды, эстетическое сознание молодежи.

Key words: Tilab Mahmudov, aesthetic heritage, national values, spirituality, philosophy of beauty, art and morality, aesthetic thinking, cultural harmony, philosophical views, youth aesthetic consciousness.

KIRISH

Milliy estetik meros- bu xalq ruhiyatining, tarixiy xotirasi va badiiy tafakkurining mujassam ifodasidir. Har bir xalqning ma'naviy madaniyati, estetik didi va san'atshunoslik an'analari o'zining chuqur falsafiy ildizlariga ega.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Milliy o'zligimizni anglash, ajdodlarimiz yaratgan bebaho madaniy merosni asrab-avaylash va uni bugungi avlod qalbiga singdirish-eng muhim vazifamizdir. Chunki ma'naviyati yuksak xalqgina buyuk davlat quradi."¹ Ushbu so'zlar milliy estetik merosni o'rganish, tahlil qilish va uni zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashtirish zaruriyatini yaqqol ifodalaydi.

O'zbek estetik tafakkurining shakllanishida Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Pahlavon Mahmud kabi mutafakkirlarning g'oyalari muhim bosqich bo'lib xizmat qilgan. Ularning qarashlari

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2021.

nafaqat Sharq, balki jahon estetik tafakkurining rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Shu falsafiy meros negizida keyingi davrlarda milliy estetik tafakkurning yangi bosqichlari vujudga keldi.

Shu jihatdan, o'zbek estetik tafakkurining zamonaviy taraqqiyotida professor Tilab Mahmudovning o'rni beqiyosdir.

U o'z asarlarida go'zallik, yuksaklik, fojia, ruhiy uyg'unlik va inson ma'naviy kamoloti masalalariga chuqur yondashgan holda, milliy estetik tafakkurni yangi ilmiy bosqichga olib chiqqan olim sifatida tan olingan². Uning ilmiy merosi o'zbek falsafiy tafakkurining mustaqillik davrida shakllangan yangi bosqichini ifodalaydi, chunki Mahmudov asarlarida milliy qadriyatlar zamonaviy g'oyalar bilan uyg'unlikda tahlil qilinadi³.

Tilab Mahmudovning estetik qarashlarini tahlil qilish, uning milliy estetik merosni boyitishdagi ilmiy-nazariy hissasini ochib berish, shuningdek, uning asarlarida go'zallik va ma'naviyat tushunchalarining o'zaro bog'liqligini aniqlashdan iboratdir.

Mazkur ishning nazariy asosini o'zbek estetik tafakkurining tarixiy rivoji, Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Ibn Sino, Navoiy, Pahlavon Mahmud) hamda zamonaviy falsafaning yutuqlari tashkil etadi. Tadqiqot metodologiyasi tarixiy-falsafiy, qiyosiy, tizimli va akseologik tahlil usullariga tayangan holda olib boriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek falsafiy-estetik tafakkuri tarixiga nazar tashlaganda, milliy merosni ilmiy asosda o'rganish masalasi mustaqillik davrida yangi bosqichga ko'tarilgani ko'rinadi. Bu davrda estetik tafakkur, san'at falsafasi, go'zallik va ma'naviyat tushunchalariga bag'ishlangan tadqiqotlar soni ortdi. Xususan, Tilab Mahmudovning ilmiy merosi ana shu jarayonning markazida turadi. U o'zining "Go'zallik falsafasi", "Estetik tafakkur va ma'naviyat", "Inson va go'zallik olami" kabi asarlarida estetik ongning milliy xususiyatlarini chuqur tahlil qilgan⁴.

Tilab Mahmudovdan avvalgi o'zbek estetik tafakkurining asoschilari Forobiy, Ibn Sino, Navoiy, Beruniy, va Pahlavon Mahmud kabi mutafakkirlar merosida shakllangan bo'lib, Mahmudov ularning g'oyalarini zamonaviy ijtimoiy-falsafiy tahlil bilan boyitadi. Ayniqsa, Forobiy ta'limotidagi "inson baxt-saodati" va "go'zallikdagi ma'naviy uyg'unlik" g'oyalari Mahmudovning estetik qarashlarida yangi mazmun kasb etgan⁵.

So'nggi yillarda o'zbek olimlari — A. Qodirov, N. Jo'raev, M. Yusupova, D. Nuriddinova kabi tadqiqotchilar ham Mahmudov asarlariga tayanib, estetik merosni yoshlar tarbiyasi, san'at falsafasi va milliy tafakkur kontekstida o'rganmoqdalar⁶. Bu esa Mahmudov g'oyalarining o'zbek ilmiy maktabida mustahkam o'rin egallaganini ko'rsatadi.

Xorijiy adabiyotlarda esa, xususan, rus va evropa estetik maktablari vakillari (G. Geygel, I. Kant, B. Krynskiy, S. Averinsev va boshqalar) estetik qadriyatlarni falsafiy sistemaning markaziy elementi sifatida tahlil qilganlar. Tilab Mahmudov o'z tadqiqotlarida ularning konsepsiyalarini Sharq falsafasi bilan qiyoslab, "go'zallikning ijtimoiy mohiyati" masalasiga o'ziga xos yondashuv kiritgan. Unga ko'ra, go'zallik faqat estetik hissiyot emas, balki jamiyatni ma'naviy birlashtiruvchi kuchdir⁷.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Tilab Mahmudovning estetik merosi milliy madaniyatning falsafiy tahlilida alohida ilmiy bosqichni tashkil etadi. U nafaqat estetik kategoriyalarni tahlil qilgan, balki o'zbek xalqining ma'naviy ruhiyatini, go'zallikka bo'lgan falsafiy munosabatini ilmiy tizimga solgan olimdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tilab Mahmudovning estetik merosini o'rganishda qo'llanilgan metodologik asoslar bir necha darajada ifodalanadi: tarixiy-falsafiy, akseologik, qiyosiy, tizimli va madaniy-kommunikativ yondashuvlar. Ushbu yondashuvlar o'zaro uyg'unlikda milliy estetik tafakkur evolyutsiyasini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Birinchidan, tarixiy-falsafiy yondashuv Mahmudovning g'oyalarini Sharq va G'arb estetik tafakkurining umumiy rivojlanish jarayonida o'rganishga imkon yaratadi. Bu usul orqali olim qarashlarining Forobiy, Ibn Sino, Geygel, Kant kabi mutafakkirlar bilan bog'liqligi aniqlanadi. Tarixiy-

² Mahmudov T. Go'zallik falsafasi. — Toshkent: Fan, 2012.

³ Mahmudov T. Estetik tafakkur va ma'naviyat. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.

⁴ Mahmudov T. Komilik asrortlari — Toshkent: "Adolat", 2006.

⁵ Forobiy A. Fozil shahar ahlining qarashlari haqida risola. — Toshkent: Fan, 1993.

⁶ Qodirov A. Estetik tafakkur va ma'naviyat uyg'unligi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.

⁷ Kant I. Tanqidiy hukm qobiliyati tanqidi. — Moskva: Mysl, 1994.

FALSAFA

falsafiy metod estetik tushunchalarning davrlar osha yangilanib borishini, har bir davrda ularning yangi ma'no kasb etishini ochib beradi⁸.

Ikkinchidan, akseologik yondashuv Mahmudov asarlarida go'zallik, yuksaklik va fojia tushunchalarining inson qadriyati bilan bevosita bog'liqligini o'rganishga xizmat qiladi. Olim go'zallikni insoniylik, ma'naviyat va ruhiy uyg'unlik mezonini sifatida talqin etadi. Shu orqali u estetik qadriyatlarning ijtimoiy-ma'naviy mohiyatini ochib bergan⁹.

Uchinchidan, qiyosiy metod orqali Mahmudov qarashlari Sharq va G'arb mutafakkirlari bilan solishtirilib, uning g'oyalari universallik kasb etgani ko'rsatiladi. Masalan, Gegel "go'zallik — g'oyaning sezilarli ko'rinishi" desa, Mahmudov bu fikrni milliy ruh bilan boyitadi, ya'ni go'zallikni "xalq ruhining estetik ifodasi" deb talqin qiladi.

To'rtinchidan, tizimli yondashuv Mahmudov konsepsiyasini yaxlit estetik nazariya sifatida o'rganish imkonini beradi. Olimning "go'zallik", "ruh", "fojia" va "yuksaklik" kategoriyalarini o'zaro aloqador tizimda tahlil etish orqali uning ilmiy merosida ichki mantiqiy bog'liqlik mavjudligi aniqlanadi.

Shuningdek, madaniy-kommunikativ metodologiya va estetik tafakkurni milliy madaniyatning kommunikativ shakli sifatida talqin etish imkonini beradi. Bu yondashuv Mahmudov qarashlarini zamonaviy estetik ong, madaniyat va ta'lim tizimiga tadbqiq qilish uchun konseptual asos yaratadi.

Shunday qilib, Tilab Mahmudovning estetik merosini o'rganishda ko'p darajali metodologik yondashuvni qo'llash, uning asarlaridagi falsafiy, ma'naviy va estetik g'oyalarni ilmiy tizimda ochib berish imkonini yaratadi.

MUHOKAMA

Tilab Mahmudovning estetik qarashlari O'zbekiston milliy badiiy tafakkurining shakllanishida alohida bosqichni tashkil etadi. Uning ilmiy izlanishlari, nazariy tahlillari va musiqiy-ijodiy faoliyati orqali estetik tafakkurda inson va go'zallik munosabatining falsafiy mazmuni yangi bosqichga ko'tarildi. Mahmudov san'atni inson ruhiyatini tarbiyalovchi, ma'naviy etuklikka undovchi kuch sifatida talqin etadi. Unga ko'ra, milliy musiqa asarlarida nafaqat badiiy go'zallik, balki xalqning tarixiy xotirasi, axloqiy qadriyati va estetik dunyoqarashi mujassamdir.

Mahmudovning asarlarida Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi Sharq mutafakkirlarining estetik merosi bilan uzviy bog'liqlik seziladi. Ayniqsa, Forobiyning "Musiqqa ilmi haqida katta kitob" asarida ilgari surilgan "musiqaning ruhiy uyg'unlik yaratish qudrati" haqidagi g'oya Mahmudovning nazariy qarashlarida o'ziga xos tarzda davom ettiriladi. U Sharq falsafasidagi bu an'anani zamonaviy ilmiy metodologiya bilan uyg'unlashtirib, musiqiy estetik tafakkurni xalq ma'naviyati bilan bir butun holda tahlil qiladi¹⁰.

Tilab Mahmudov milliy estetika masalasiga nafaqat nazariy, balki pedagogik va ma'naviy-tarbiyaviy yondashuvni ham olib kirgan olimlardan biridir. Uning fikricha, milliy estetik merosni o'rganish jarayoni yoshlarning estetik didini shakllantirish, milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini mustahkamlashda eng samarali vositadir. Shu ma'noda, Mahmudov estetik tarbiyani milliy madaniyatning uzviy tarkibiy qismi sifatida talqin etadi.

Bugungi globallashuv jarayonida Tilab Mahmudovning estetik qarashlari o'z dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda. Chunki u san'atni milliy o'zlikni anglash, ma'naviy yuksalish va ruhiy uyg'unlikning muhim omili sifatida talqin etgan. Uning fikricha, milliy musiqaning badiiy kuchi — xalqning tarixiy tajribasini, axloqiy mezonlarini va estetik dunyoqarashini zamon bilan uyg'unlashtira olishidadir. Shu jihatdan olganda, Mahmudov merosi zamonaviy estetik tafakkurning shakllanishida nafaqat nazariy, balki ma'naviy yo'nalish ham beradi.

XULOSA

Tilab Mahmudovning milliy estetik merosga qo'shgan hissasi — bu nafaqat badiiy yoki musiqiy yo'nalishdagi yutuq, balki falsafiy tafakkur rivojida yangi bosqichdir. Uning ilmiy qarashlari orqali milliy estetika masalasi o'zbek madaniyati va ma'naviy hayotining tub ildizlari bilan uyg'unlashdi. Mahmudov san'atni inson ruhiyatini yuksaltiruvchi, tafakkurni uyg'otuvchi va jamiyatni ezgulik sari etaklovchi kuch sifatida talqin etdi. Bu yondashuv bugungi zamon uchun ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda, chunki insoniyat hali ham ruhiy uyg'unlik va estetik go'zallikka ehtiyoj sezmoqda.

⁸ Ismoilov B. Falsafa va estetik tafakkur asoslari. — Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019.

⁹ Tojiboyev M. Aksiologik tahlil nazariyasi. — Samarqand: Registon nashriyoti, 2021.

¹⁰ Mahmudov T. Milliy estetika asoslari. — Toshkent: O'zbekiston, 2017.

Estetik tafakkur mohiyatida insonning o'zlikni anglash, go'zallikni idrok etish va uni ma'naviy qadriyat sifatida qabul qilish jarayoni mujassam. Mahmudov bu jarayonni milliy musiqaning badiiy tahlili orqali yoritadi. Uning nazariyasida "go'zallik" — tashqi ko'rinishdan ko'ra chuqur ma'naviy-ruhiy holat, insonni o'z mohiyatiga etaklovchi ichki uyg'unlik sifatida talqin qilinadi. Shu bois, u estetik tafakkurni inson ruhiyatining "eng oliy shakli" deb e'tirof etadi.

Zamonaviy davrda madaniyat va san'at global almashinuv jarayonida yangi yo'nalishlar, yangi estetik paradigmalar yuz tutmoqda. Biroq bu o'zgarishlar fonida milliy estetik tafakkur o'z o'rini yo'qotmasligi kerak. Tilab Mahmudovning ilmiy merosi bu borada muhim tayanch vazifasini bajaradi. Chunki u milliylik va universallik o'rtasidagi muvozanatni saqlash zarurligini ta'kidlab, san'atni insoniyatni birlashtiruvchi, madaniyatlararo muloqotni boyituvchi kuch sifatida ko'radi.

Mahmudovning qarashlari Sharq mutafakkirlarining hikmatli falsafasi — Forobiy, Ibn Sino, Navoiy, Beruniylar merosi bilan uyg'unlashgan holda, zamonaviy estetik tafakkur bilan hamohangdir. U go'zallikni ilohiy va ijtimoiy mohiyatga ega hodisa sifatida talqin qilib, uni insonning ma'naviy etuklik darajasi bilan bog'laydi. Shu ma'noda, Mahmudov estetikani faqat san'at nazariyasi emas, balki insonni komillikka etaklovchi falsafiy yo'l sifatida ko'radi.

Tilab Mahmudovning "Komillik asrorlari", "Hayotiy hikmatlar" va "Avesto haqida" kabi asarlari uning milliy estetik merosining falsafiy va ilmiy-nazariy mohiyatini chuqur ochib beradi. Ushbu asarlarda olim estetik go'zallikning inson ma'naviy olamidagi o'rni, komillik va ruhiy uyg'unlik o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil etadi. U san'at, axloq, go'zallik va ezgulik o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni izchil yoritib, milliy estetik tafakkur uchun yangi nazariy mezonlarni belgilaydi. Bu qarashlar orqali Mahmudov o'zbek estetik tafakkurining nazariy poydevorini yanada mustahkamlagan.

Bugungi kunda Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida mamlakatimizda madaniyat, san'at va milliy qadriyatlarni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani bejiz emas. Bu jarayonlarda Tilab Mahmudov kabi olimlarning ilmiy g'oyalari, estetik qarashlari va milliy ruhga tayanishi alohida ahamiyatga ega. Chunki milliy madaniyatni asrash — bu o'zlikni asrash, ma'naviyatni boyitish, yosh avlodni go'zallikka, ezgulikka etaklashdir.

Shunday qilib, Tilab Mahmudovning milliy estetik merosga qo'shgan hissasi O'zbekiston ilmiy tafakkurida o'ziga xos maktabni yaratdi. Uning asarlari falsafiy chuqurligi, ma'naviy teranligi va milliy o'zlikni ifoda etishdagi samimiyligi bilan ajralib turadi. Ushbu merosni zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida o'rganish, uni yosh avlod estetik tarbiyasiga tatbiq etish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Chunki Mahmudov merosi — o'zbek milliy tafakkurining davomiyligi, ma'naviy uyg'unlikning ramzi va estetik go'zallikning abadiy mezonidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Mahmudov T. Go'zallik falsafasi. — Toshkent: Fan, 2012.
3. Mahmudov T. Estetik tafakkur va ma'naviyat. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
4. Mahmudov T. Komillik asrorlari — Toshkent: "Adolat", 2006.
5. Forobiy A. Fozil shahar ahlining qarashlari haqida risola. — Toshkent: Fan, 1993.
6. Qodirov A. Estetik tafakkur va ma'naviyat uyg'unligi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
7. Kant I. Tanqidiy hukm qobiliyati tanqidi. — Moskva: Mysl, 1994.
8. Ismoilov B. Falsafa va estetik tafakkur asoslari. — Toshkent: Tafakkur nashriyoti, 2019.
9. Tojiboyev M. Aksiologik tahlil nazariyasi. — Samarqand: Registon nashriyoti, 2021.
10. Mahmudov T. Milliy estetika asoslari. — Toshkent: O'zbekiston, 2017.